



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдупаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASI

Mohichexra Melikovna Mo‘minova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Jahon yalpi iste‘molining ortib borishi cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosini yuzaga keltirmoqda. Resurslarning cheklanganligi hamda ularning yer kurrasi va okeanlarda ma‘lum miqdorda mavjudligi ushbu jarayonning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddat davomida intensiv foydalanish natijasida tugashi mumkin. Shu bilan birga, yer yuzidagi mavjud resurslarning umumiy hajmi hozirgi iste‘mol darajasidan minglab va millionlab marotaba yuqori ekanligi qayd etiladi. Mazkur maqolada muallif O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining asosiy sabablari, zaruriyati hamda iqtisodiy va ekologik ahamiyatini tahlil qilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, energiya, xizmatlar sohasi, yashil iqtisodiyot, tadbirkorlik, qayta tiklanuvchi energiya, resurs, globalashuv, chiqindisiz texnologiya, chiqindi, standart, texnologiya, fan-texnika, raqobat, uglerod oksidi, tropik o‘rmonlar.

Abstract. The growth of global gross consumption leads to the problem of efficient use of limited resources. The limited nature of resources and their availability in fixed quantities on Earth and in the oceans are among the major characteristics of modern development. Theoretically, mineral resources may eventually be depleted due to intensive long-term exploitation. However, it is emphasized that the total amount of existing resources on Earth exceeds current consumption levels by thousands and millions of times. In this article, the author analyzes the reasons, necessity, and economic as well as environmental significance of the strategy for the transition of the Republic of Uzbekistan to a “green” economy. The study also highlights the use of renewable energy sources, the implementation of waste-free technologies, and the promotion of sustainable development.

Key words: strategy, energy, service sector, green economy, entrepreneurship, renewable energy, resource, globalization, waste-free technology, waste, standard, technology, science and technology, competition, carbon oxide, tropical forests.

Аннотация. Рост мирового валового потребления приводит к возникновению проблемы эффективного использования ограниченных ресурсов. Ограниченность ресурсов и их наличие в определённом объёме на Земле и в мировом океане являются важными особенностями современного развития. Теоретически минеральные ресурсы могут исчерпаться в результате их интенсивного использования в долгосрочной перспективе. Вместе с тем отмечается, что общий объём существующих ресурсов на Земле во много тысяч и миллионов раз превышает текущий уровень потребления. В данной статье автор рассматривает причины, необходимость, а также экономическое и экологическое значение стратегии перехода Республики Узбекистан к «зелёной» экономике. Кроме того, анализируются вопросы использования возобновляемых источников энергии, внедрения безотходных технологий и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: стратегия, энергия, сфера услуг, зелёная экономика, предпринимательство, возобновляемая энергия, ресурс, глобализация, безотходная технология, отходы, стандарт, технология, наука и техника, конкуренция, углеродный оксид, тропические леса.

KIRISH

XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o‘zgarib ketdi. “1900-yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda ushbu ko‘rsatkich 6 mlrd kishidan oshdi, 2025-yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 8,6 mlrd kishini tashkil etmoqda. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi jahon bo‘yicha deyarli ikki martaga oshib, kambag‘allik darajasi uch martadan ko‘proqqa kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta‘sirida iqtisodiy rivojlanish hamda aholi turmush darajasining keskin o‘sishi dunyo aholisi sonining jadal sur‘atlarda ortishiga sabab bo‘ldi. Fan-texnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o‘shish sur‘atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini ta‘minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 martaga o‘sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti hajmi 18 martadan ko‘proqqa ortgan” [1].



“Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyo aholisining ko‘payishi hamda iqtisodiy o‘shishning muntazam ravishda davom etishi atrof-muhitga bo‘lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So‘nggi yuz yillikdagi aholi soni hamda iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000-yilda 1900-yilga nisbatan) oshdi, tropik o‘rmonlarning yo‘qolish darajasi 6 martaga oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi esa 1,5 martaga ko‘paydi” [2].

Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o‘zgarishlari o‘rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarda O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning muhim ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

1. iqlimiy majburiyatlarni, jumladan Parij bitimi talablarini milliy siyosatga integratsiya qilish;
2. qayta tiklanuvchi energiya resurslari (QTER) hamda energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish;
3. moliyaviy resurslar va ekspertlarni jalb qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
4. mahalliy ekologik muammolarni, xususan Orol inqirozi va cho‘llanish jarayonlarini bartaraf etish.

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi manbalarga murojaat qilish tavsiya etiladi:

1. United Nations (BMT), United Nations Environment Programme hamda International Renewable Energy Agencyning rasmiy hujjatlari;
2. O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyalari va qonunchilik hujjatlari;
3. iqlimshunoslik va tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti yo‘nalishidagi ilmiy nashrlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“United Nations Development Programme fikriga ko‘ra, rivojlanish hamda ehtiyojlarni qondirish uchun sezilarli miqdordagi uglevdorod resurslarini talab etuvchi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaning hozirgi holati o‘zgartirilmasa, 2050-yilda 2030-yilga nisbatan insoniyat 5 mln kishi yo‘qotishi mumkin” [3]. Iqlim va global tabiiy tizimdagi o‘zgarishlar inson hayotining barcha jihatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda mamlakatlar aholisi turmush darajasining yomonlashuviga olib keladi.

Jahon yalpi iste‘molining o‘shishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqarmoqda. Resurslarning cheklanganligi hamda ularning yer kurrasi va okeanlarda ma‘lum miqdorda mavjudligi ularga xos asosiy xususiyat hisoblanadi. “Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddat davomida intensiv foydalanish oqibatida tugashi mumkin. Yer kurrasidagi aksariyat resurslarning umumiy hajmi esa iste‘mol qilinayotgan hajmdan minglab va millionlab marotaba ko‘pdir.

United Nations Environment Programme tadqiqotlariga ko‘ra, jahon tabiiy resurslaridan oqilona hamda samarali foydalanish kelgusi avlodlar uchun 2050-yilgacha har yili 2 trln dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Shu davrda dunyo aholisi soni 28 % ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71 % ga ortishi prognoz qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qat‘iy choralar ishlab chiqilmasa, metallar, bioyoqilg‘i, minerallar hamda boshqa resurslarning yillik iste‘moli 85 mlrd tonnadan 186 mlrd tonnagacha oshishi mumkin. Iqlim o‘zgarishining oldini olish uchun sarflanayotgan investitsiyalar aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ulushining 3,7 % ga qisqarishiga olib kelayotgan bo‘lsa-da, resurslardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish ushbu yo‘qotishlarni qoplash imkonini beradi.

Mavjud vaziyatda iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohani qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishga o‘tkazish eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi. “Dunyoning deyarli barcha mintaqalarida qayta tiklanuvchi energetika (quyosh, shamol, gidroenergetika hamda bioenergetika) sektoridan foydalanish bilan bog‘liq sezilarli salohiyat mavjud. Jumladan, International Renewable Energy Agency ma‘lumotlariga ko‘ra, Kanada va AQSh qayta tiklanuvchi energiya resurslari asosida mos ravishda 96 636 va 214 766 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni yaratgan. Rossiya o‘zining katta salohiyati va xilma-xil iqlim sharoiti tufayli qayta tiklanuvchi energiya resurslari hisobidan yiliga 51 747 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirgan. Braziliya va Xitoy esa qayta tiklanuvchi energiya resurslari asosida mos ravishda yiliga 122 951 va 545 206 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni ishga tushirgan. Bu borada Afrika mintaqasi nisbatan past ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda. Jumladan, butun Afrika mintaqasi qayta tiklanuvchi energiya resurslari asosida 38 192 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega” [4].

“Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashuvni kuchaytirish hamda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik va investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama qilib kelinmoqda. Jumladan, United Nationsning 2014-yilda taqdim etilgan “An Action Agenda for Sustainable Development” nomli hisobotida



mamlakatlarning barqaror rivojlanish darajasini belgilovchi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan" [5]: iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash, tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlash.

"Iqtisodiy o'sish mamlakat barqaror rivojlanishining muhim jihati hisoblanadi, bunda atrof-muhit muvozanatini saqlash, ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni kamaytirish hamda tinchlikni ta'minlash kabi ko'plab omillar ham inobatga olinadi. United Nations Environment Programme va Iqlim o'zgarishlari bo'yicha hukumatlararo komissiya tomonidan 2012-yilda chop etilgan "Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation" maxsus hisobotida qayta tiklanuvchi energiya manbalari energiyaning boshqa turlariga nisbatan atrof-muhitga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish bo'yicha yuqori salohiyatga ega ekanligi ta'kidlangan."

TAHLIL VA NATIJALAR

Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon uzoq muddatni hamda katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Bunda ustuvor e'tibor qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish va energiya tejavchi texnologiyalarni rivojlantirishga qaratiladi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog'liq holda amalga oshadi. Shu sababli o'tish jarayoni uchun qulay muhit, jumladan huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va boshqa zarur mexanizmlarni yaratish muhim hisoblanadi. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantiruvchi omillar, jumladan investitsiyalar hamda davlat xaridlari "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni "yashillashtirish" jarayoni yanada faollashadi [6].

Mamlakatda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2019-yil 8–9-iyul kunlari Toshkent shahrida "yashil iqtisodiyot" bo'yicha normativ-huquqiy bazani hamda siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining "yashil iqtisodiyot" bo'yicha mintaqaviy vazirlar konferensiyasi o'tkazildi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor hamda ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro bog'liq muammolar hamda ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, jadallashayotgan sanoatlashtirish hamda aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda. Shuningdek, bu holat atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirib, issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyotda energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi hamda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsad va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Uzoq muddatli strategiyaning mavjud emasligi "yashil" texnologiyalarni joriy etish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bermayapti.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Paris Agreement (Parij, 2015-yil 12-dekabr) majburiyatlarini bajarish hamda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini ta'minlash maqsadida quyidagilar O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari etib belgilandi:

1. texnologik modernizatsiyalash hamda moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

2. davlat investitsiyalari hamda xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni joriy etish;

3. davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

4. ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori uchun zarur kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

5. Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish;

6. "yashil" iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.



2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Paris Agreementni (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi hamda uni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda belgilanadigan hissa bo'yicha — 2030-yilgacha issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 % ga qisqartirish majburiyatini qabul qildi.

Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo'yicha o'rtacha muddatli ustuvor vazifalar mamlakatda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda Orolbo'yidagi ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutuvchi qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilmayotgani, texnologiyalar yangilanishining sustligi hamda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Hozirgi davrda jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri sifatida tan olmoqda. Darhaqiqat, XX asrga kelib dunyo mamlakatlarining keskin industrial rivojlanishi, tabiat qonuniyatlariga bo'ysunmasdan uning resurslaridan nooqilona foydalanishi natijasida atmosferaga katta miqdorda issiqxona gazlari chiqarilishi iqlim o'zgarishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, dunyoning turli hududlarida yilning barcha fasllarida haroratning keskin o'zgarishiga, ayrim joylarda halokatli yog'ingarchiliklar, toshqinlar, bo'ron va to'fonlar kabi ofatlarga, boshqa hududlarda esa qurg'oqchilik, cho'llanish, yer degradatsiyasi, o'rmon yong'inlari hamda boshqa ekologik muammolarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

World Meteorological Organization ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kungacha global yillik o'rtacha havo harorati 1880-yildagi darajaga nisbatan 1 °C ga oshgan. O'zbekistonda esa ayni davr mobaynida o'rtacha yillik havo harorati 1,6 °C ga ko'tarilgan. Ya'ni, isish jadalligi global miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atdan yuqori hisoblanadi. Sababi, O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga ko'proq moyil mamlakatlar qatoriga kiradi.

Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, iqlim isishi ekotizimlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo viloyati, Buxoro viloyati va Xorazm viloyati kabi hududlarda ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Shuningdek, yil davomida jazirama davrining uzayishi va kuchayishi natijasida aholi o'rtasida kasalliklarning ortishi, sel va toshqinlarning tez-tez takrorlanishi, yuqori tog' hududlaridagi ko'llarning yorilishi kabi xavfli tabiiy hodisalarning yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kuchayib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij shahrida United Nationsning Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy konvensiyasiga bag'ishlangan konferensiyaning 21-sessiyasida Paris Agreement qabul qilindi va 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirdi.

Hozirgi vaqtda Parij bitimini imzolagan 195 mamlakatning 180 tasi ushbu hujjatning to'laqonli ishtirokchisi hisoblanadi. Bitimni ratifikatsiya qilmagan mamlakatlar kuzatuvchi maqomiga ega bo'lib, ular uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan iqlimga doir dastur va loyihalarni moliyalashtirishda ayrim cheklovlar qo'llaniladi.

Mazkur bitimning asosiy maqsadi sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o'rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo'yicha 2 °C darajada ushlab turish hamda haroratning 1,5 °C gacha o'sishini cheklashdan iboratdir. Bitimga muvofiq, 2050-yilgacha issiqxona gazlarining global ajratmalarini 40–70 % ga kamaytirish, 2100-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni nol yoki manfiy darajaga yetkazish nazarda tutilgan. Shuningdek, mamlakatlar 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha milliy hissalarini kamaytirish yuzasidan United Nations Framework Convention on Climate Change kotibiyatiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etishlari zarur.

Bitimda rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim o'zgarishining oldini olish va unga moslashish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash majburiyati belgilangan. 2020-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlari va ustuvorliklarini inobatga olgan holda moliyaviy ko'mak hajmini 100 mlrd AQSh dollariga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda maxsus jamg'arma umumiy qiymati 1,5 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan 35 ta loyihani moliyalashtirmoqda. Ular qatorida O'zbekiston va Tojikiston uchun World Bank bilan hamkorlikdagi "Orol dengizi havzasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oldini olish dasturi" loyihasi ham mavjud bo'lib, uni moliyalashtirish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Mazkur loyiha uchun 20 mln AQSh dollariga teng grant ajratilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston 2017-yil 19-aprelda United Nationsning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida Parij bitimini imzolagan, biroq uzoq vaqt davomida ushbu bitimni ratifikatsiya qilmagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan United Nations Framework Convention on Climate Changing "Parij kelishuvi (Parij, 2015-yil 12-dekabr)ni ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi O'zbekiston uchun bir qator muhim imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, energiya samaradorligi va energiya tejash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda iqlimiy moliyalashtirish



resurslarini, asosan grantlarni jalb qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yer va suv resurslarini boshqarishni yaxshilash hamda Orol fojiasi, cho'llanish va qurg'oqchilik kabi salbiy ekologik oqibatlarga qarshi kurashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Parij bitimida ishtirok etish investitsiya resurslarini jalb qilish hamda xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning kreditlarini olish uchun muhim indikator hisoblanadi. Mazkur bitimga muvofiq, iqlim sohasidagi harakatlar kelajakdagi savdo kelishuvlari uchun ham muhim shart bo'lishi mumkin. Jumladan, France hukumati Parij bitimiga a'zolikni European Union savdo kelishuvlarining muhim elementi sifatida tan olish taklifini ilgari surgan. Bu esa Yevropa Ittifoqining Parij bitimini ratifikatsiya qilmagan yoki uni amalda bajarmayotgan mamlakatlar bilan savdo aloqalarini cheklashi mumkinligini anglatadi.

Shu jihatlarni, eng muhimi esa xalq manfaatlarini va ekologik xavfsizlikni ta'minlash ustuvor ekanligini inobatga olgan holda, Parij bitimini ratifikatsiya qilish O'zbekiston Respublikasining umuminsoniy qadriyatlar hamda atrof-muhitni muhofaza qilish g'oyalari sodiqligini namoyon etadi. Shu bilan birga, bu holat iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyaga a'zo davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish, resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy hamda energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi.

Bunda uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak:

- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad hamda vazifalarga muvofiqlik;
- resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni ta'minlash;
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda "yashil" vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi;
- eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish, ko'rsatkichlarni yaxshilash, "yashil" ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash.

Shu munosabat bilan iqlim o'zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maddison Project. *Historical and Statistical World Economy* [Electronic resource]. – 2015. – Available at: Maddison Project Database (accessed: 11.05.2026).
2. United Nations Environment Programme. *Publication UNEP*. – United Nations Environment Programme, 2015.
3. International Renewable Energy Agency. *Renewable Capacity Statistics 2017*. – International Renewable Energy Agency, 2017. – Available at: [IRENA Publications](#) (accessed: 11.05.2026).
4. United Nations. *UN Report for the UN Secretary-General "An Action Agenda for Sustainable Development"*. – 2014. – P. 1–2.
5. United Nations Environment Programme; Intergovernmental Panel on Climate Change. *Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation*. – [s.l.], 2012.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>